

SOMONIYLAR DAVLATI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Abdullayev Ramazon

Email: ramazonabdullahayev872@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Yo'ldoshev Sunnat

Email:yoldoshevsunnat806@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Norqulov O'lmasbek

Email:norqulovolmas559@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Xo'shboqov Farrux

Email:farruxxushboqov46@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlati tashkil topishi va davlat boshqaruvi,davlat asoschisi bolgan Ismoil Somoni(892-907) hukumronligi davrida qo'lga kiritilgan hududlar, amalga oshirilgan islohotlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Somonxudot, Nizom al-mulk, Bunjikat, "Kamipir devori", Taroz, Hojib, Hojib ul hujob, Dinastiya, "Siyasat name", Karmatlar, "Xo'jai buzruk", Rasht, CHag'oniyon.

Manbalarga ko'ra Somoniylar sulolasining asoschisi VIII asr oxirida Xalifaga xizmat qilgan Balxlik Somonxudot-dehqon (zamindor-feodal) edi. Uning o'g'li Asad va nabiralari Nuh, Ahmad, Ilyos va Yaqub 819-yilda xalifaga sodiq xizmat qilgani uchun Movarounnahr viloyatlari hukmdorlari etib tayinlangan. Shuning uchun bu sana Somoniylarning qariyb I asr davom etgan (819-999) hukmronligi boshlanish sanasi hisoblanadi. Dastlab Dinastiya boshlig'i Nuh ibn Asad (819-841),keyin Ahmad ibn Asad (841-864) birin ketin hukmronlik qilgan. Ahmad ibn Asad esa hokimiyatni og'li Nasrga (864-892) topshirgan.

Tohiriyalar davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgaradi va istiqlol uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buhoro ahli hatto Safforiylarga itoat etishni xohlamaydilar. SHahar ahli Somoniylarga murojat qilib, Samarqandga Nasr huzuriga elchilar yuboradilar, undan buxoroni o'z qo'liga olishni va Somoniylar xonadonidan biron kishini hokim qilib jo'natishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mammuniyat bilan qabul qilib, 874-yilda ukasi Ismoilni Buxoroga noib qilib yuboradi. U yerda yosh Ismoil (874-907) aholini talab, bosqinchilik qilgan to'dalarga qarshi kurash olib boradi. Buhoro aholisiga ko'rsatgan xizmatlari sababli u xalq ommasi tomonidan qo'llab quvvatlandi. (Buhoro devorini ta'mirlash ishlari bo'yicha

(“Kamipir Devori”) aholiga yuklatilgan mehnat majburiyatini bekor qildi, vaqtincha soliqlardan ozod qildi). Ammo, Buxoro noibi bo’lgan Ismoil akasi Nasrga itoat etishni istamaydi va o’ziga berilgan viloyatni mumkin qadar iqtisodiy jihatdan mustaqil idora qilishga intiladi. Nasrning Samarqanddagi xazinasiga yuboriladigan har yilgi soliqlarni turli bahonalar bilan to’xtatib qo’yadi. Ismoil bilan akasi o’rtasida sodir bo’lgan ziddiyatning asosiy sababi Ismoilni akasiga daromadining bir qismini (taxminan 700 ming dirham) yuborishni to’xtatganligi sabab sodir bo’ldi. 886-yilda aka-uka o’rtasida kkita to’qnashuv sodir bo’ldi. Ismoil vaqtinchalik hokimiyatdan chetlatildi. 888-yilda Ismoil akasi ustidan g’alabaga erishdi, ammo akasidan taxtni tortib olmadidi. Nasrning ukasiga nisbatan hurmati va e’tibori oshdi. Shunday qilib Nasr Movarounnahr taxtini Ismoilga 892-yilda vasiyat qilib qoldirdi.

Ismoil Somoni: Tojikistonning milliy qahramoni, O’rta osiyoda davlat asoschisi, butun tojik tarixidagi muhim shaxsdir. U Movarounnahrda (892-907) va Xurosonda (900-907) hukmdor(Amir) bo’lgan. Ismoil Somoni dunyoga “Amiri Adil”(Adolatli Qo’mondon) nomi bilan tanilgan. 849-yilda mayda Farg’onada tug’ilgan. Ahmad ibn Asad o’g’illarining eng kichigi bo’lgan. 892-yildan boshlab Ismoil butun Movarounnahrni birlashtirib, o’zinining mutlaq yakka hukmronligini o’rnatadi va dastlab katta qo’shin to’plab, ko’chmanchilar dashtiga qo’shin tortadi. 893-yilda u Taroz shahrini egallab, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Bu jang Somoniylar davrida ko’chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo’ldi. Natijada dashtlik ko’chmanchilarning Movarounnahr viloyatlariga bo’lgan tinimsiz bosqinlariga chek qo’yildi. Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi shubhasiz Arab xalifalariga yoqmas edi. SHu sababli xalifalik Safforiylar bilan Somoniylarni to’qnashtirish va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlardagi o’z hukmronligini qayta tiklashga harakat qiladi. Xalifa Mutazid Safforiylar hukmdori Amir ibn laysga Xuroson bilan birgalikda Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gjigjilaydi.

Natijada ular o’rtasida 900-yilda urush boshlanadi. Urush Ismoilning g’alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson Somoniylar qo’l ostiga o’tadi bosib olingan hududlar natijasida davlat tarkibiga, butun Markaziy Osiyo, Afg’oniston va Eron hududlari ham qo’shib olinadi. Tarixchilar Ismoil hukmronligi davrini Somoniylar sulolasinini gullab yashnagan davri deb hisoblaydilar. Mashxur olim va jamoat arbobi Nizom al mulk o’zining “Siyasat-name” asarida bu hukmdor haqida shunday yozgan:“u juda adolatli va koplاب yaxshi fazilatlarga ega edi. Uning Allohga bo’lgan ishonchi buyuk ulug’vorsamimiш edi va u kambag’allarga saxiy edi” Ismoilning davlat oldidagi eng katta xizmati shundaki, u barcha tojiklarni bitta davlatga birlashtira oldi. Bundan tashqari 1) mamlakatda bo’layotgan tartibsizliklar va talonchiliklarni to’xtatdi, 2) Turkiy ko’chmanchilarning bosqinchilik va talonchilik yurishlarini to’xtatishga erishdi, 3)

Mamlakatning davlat mustaqilligini taminladi, 4) Movarounnahr va Xuroson Tojiklarini yagona davlatga birlashtirdi.

Davlat boshqaruvi: Somoniylar davlati tarkibiga 16 taviloyat birlashtirilgan 1.) Movarounnahr: (Sog'd' Kesh, Farg'ona, Ustrushona, CHag'oniyon, Fayzobod, Xuttal, Badaxshon, Rasht, Karan) hududlari kirgan.

2.)Xuroson: Nishopur, Marv, Balx, Hirot, Seiston, G'azna, Tabariston (SHimoliy SHarqiy Eron). Hududlari kirgan. Boshqaruv esa ikkiga 1) Dargoh (Amir saroyi) va Devonlar(fuqorolik harbiy vazirliklari) dan iborat edi. Dargohda Amir harami va saroy a'yonlari, navkar va xizmatkorlarning turar joylari joylashgan edi. Narshaxiyning yozishicha, somoniylar boshqaruvi asosan o'nta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar edi. Bosh vazir "Xo'jayi buzrug"(buyuk hojib) deb nomlangan. NasrII (914-943) davrida mamlakatni ma'rifatparvar vazirlar Jayhoniy (olim, geograf, astranom va faylasuf), Abdulfayz Bal'ami(olim va ensikloplist) va Utbi(shoir,faylasuf) boshqargan davlatda viloyatlarni Somoniylar sulolasining qarindoshlari yoki yirik dehqonlar boshqargan . Ular bilan bir qatorda har bir shaharda mahalliy feodallar orasidan shaharlarning "raislari"(boshliqlari) tayinlangan.

Somoniylarda vazir devonidan tashqari yana 10 ta devon bo'lib, ular uchun Buxoradagi Registon maydonida maxsus katta bino qurilgan edi. Somoniylarning boshqaruv tizimi, asosan, mahalliy dehqonlar, aslzodalar va din arboblaridan tashkil topgan bo'lib, har bir amaldor Arab va Fors tillarini mukammal bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy fanlardan xabardor bo'lishi shart edi. Bunday insonlarni xalq Alqalam (qalam ahli) deb atashgan. Saroy harbiy qo'mondonlari "Hojib" Xuroson lashkarboshisi esa "Sipohsolor" deb atalgan. Ular bevosita boshqaruv ishlarida ham faol qatnashib, o'z ta'sirini o'tkazib kelishgan. Somoniylar sulolasining soliqlardan kelib tushadigan yillik daromadi 45 million dirhamni tashkil etgan. Bu mablag'lardan 20 millionga yaqini boshqaruv tizimida xizmat qilayotgan amaldorlar va qo'shin harajatlariga sarflangan. Xizmat evaziga hammaga har 90 kunda, ya'ni bir yilda 4 marta muntazam tarzda oylik maosh berib turilgan. Viloyatlarda boshqaruv hokimlar qo'lida bo'lib ular amir tomonidan tayinlangan. Bu mansabga ko'pincha mahalliy yer egalari va viloyat hokimlari xonodonidan bo'lgan kishilar tayinlangan. Shaharlarning boshqaruvi raislar qo'lida bo'lib, ular hokimlar tomonidan tayinlangan. Masalan sulolalar hukmronlik qilgan vaqtida Tohariston shaharlarida Banichuriylar sulolasi, Xurosonda Simjuriylar sulolasi, Xorazm va Isfaxonda mahalliy turkiy sulolalar, shuningdek CHag'oniyon, G'azna, G'ur va Sijistonda ham mahalliy sulolalar hukm surgan.

Qishloq xo'jaligi: IX-X asrlarda Movarounnahr va Xuroson ahолиси sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Sug'orish tizimi orqali sug'orib obod etilgan reenum vohalarda g'allakorlik, sholikorlik, sabzabovotchilik va polizchilik,

bog'dorchilik yuqori darajada rivojlangan. Bu davrda chorvachilik ham yuqori darajada rivojlangan. Chorvachilik aholini yetarli chorva mahsulotlari bilan taminlabgina qolmasdan xo'jalikning hamma sohalari uchun ot-ulovlar ham yetkazib bergen. Ayniqsa davlatning harbiy qo'shinlari, xususan suvoriy qismlarni ot-ulov bilan taminlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. IX asrda somoniylar iqtisodiyoti rivojlangan qishloq xo'jaligiga asoslangan bo'lib, dehqonlardan "Xiroj"(yer solig'i) olingan.

Somoniylar inqirozi: Ismoil Somoni yirik yer egasi sifatida, mahalliy zodagonlar va savdogarlar xizmatiga tayangan holatda davlatni idora qilgan. Biroq shunday holda ham Ismoil Somoni xuddi boshqa somoniy hukmdorlari singari davlatning ichki ziddiyatlariga to'liq barham bera olmadi va natijada tez tez dehqonlarning yer egalariga qarshi chiqishlari bo'lib turgan. 907-yilda Ismoil somoniy vafot etgach taxtga uning o'g'li Ahmad ibn Ismoil o'tirdi. Ammo uning hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi (907-914) Uning davrida davlatni idora etishda Arab tilining qayta tiklanishi ko'pgina mahaliy zodagonlar va Turk g'ulomlarining noroziligini keltirib chiqardi. Natijada u 914-yili Turk g'ulomlari tomonidan o'ldirilib, taxtga 8 yoshli og'li Nasr ibn Ahmad o'tqazildi

914-yilda Samarqandda yana qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon karmatlar g'oyasi va bayrog'i ostida bo'lib o'tdi. Qo'zg'olon 918-yilda bostirildi. Ko'p o'tmay Nasrning qarindoshi Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi bosh ko'tardi. 922-yilda esa Ilyos ibn Isloh qo'zg'olon ko'tardi. Tinmay davom etayotgan qo'zg'olon va g'alayonlar Somoniylar davlatining qudratiga ta'sir ko'rsatib, u asta sekinlik bilan inqirozga yuz tuta boshladi. 943-yilda taxtga o'tirgan Nasrning o'g'li Nuh karmatlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi va ularning mol-mulkini musodara qildi. Aynan Nuhning hukmronligi davrida Somoniylar davlatining inqirozi yaqqol ko'zga ko'rina boshlandi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko'paytirdi. Bu xalq noroziligini yanada oshirdi. Xalqning noroziligidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali CHag'oniy yordamida vaqtincha Buhoro taxtini egalladi. Soliqlarning nihoyatta ko'payib borishi, zodagonlarning o'zaro janjallari, viloyat noiblarining markazga bo'ysunmay qo'yishi va saroyda bo'layotgan taxt uchun kurashlar Somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi. Bu kurashlar ayniqsa Amir Mansur ibn Nuh II(976-997) hukumronligi davri keskin tus oldi. Ichki nizolar fitnalar oqibatida Nuh II Yettisuv va Qoshg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrga qilgan yurishlariga keskin qarshi tura olmadi. Somoniylar davlatidagi barqarorlikdan foydalangan Qoraxoniy Xorun Bug'roxon 990- yilda G'arb tomon qo'shin tortdi va 2 yil davomida Somoniylarga qarashli viloyatlarnibirin-ketin egallab ola boshladi. 13-15 yil davomida Somoniylar hukmdorlar Qoraxoniylar va qisman Saljuqiylar bilan kurash olib borib nihoyatda holdan toydilar. Somoniylarning so'ngi hukmdori Abu Ibrohim Muntasir 1005-yilda

o'ldiriladi. Mavarounnahr va Xurosondagi Somoniylarga tegishli bo'lgan hududlar Qoraxoniylar va G'aznaviyilar tomonidan bo'lib olinadi, Somoniylar davlati esa butunlay barham topadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) T..2000.
2. Ahmadjonov Rossiya Imperiyasi Markaziy Osiyoda. T..2003.
3. Ismoilova J.Farg'ona vodiyisida milliy ozodlik kurashlari. T..2003.
4. Istorya Uzbekistan – T : Fan, 2012.
5. Sag'dullayev A .S Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2004.
6. Sag'dullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.